

Tiluvzani maqivoppiza?

Uchinchi maqola

O'zbek xalq tili – ulkan, u Markaziy Osiyoda katta bir arealni qamrab olgan, bugungi kun u qirq million, balki ko'proq odamlarning ona tili. Adabiy til uning ichida – misoli davlat ichidagi davlat, bu davlatning asosi esa O'zbekistonimiz, qo'shni davlatlardagi o'zbeklar asosan o'z sheva va lahjalarida so'zlashadilar; adabiy tilning ulardagi rivoji juda ko'p jihatdan bizga bog'liq, bizda adabiy til davlat maqomida hamda qonun himoyasida va bois bu tilni asrab-avaylash, toza saqlash, chet tillar ta'sirini bir me'yorga keltirish zaruriyati bizning, ko'proq qalam ahlining zimmasida.

Maqolamiz mavzui shu mazmunda.

Avom tilning rivoji asrlar davomida tabiiy kechdi, o'tgan asr boshlarigacha arabiy va forsiy tillar bilan doimiy muloqotdan boshqa unchalik ta'sirlarga uchramagan; adabiy til esa avom tili, qora til (ham ulkan, ham ishlov berilmagan, yombi ma'nosida) chashmalaridan chiqadigan zilollardan yig'ilib, asrlar mobaynida sayqal ishlov berilib, sayqal topgan va bugungi zamon talabi bilan yana ham sheva ne'matlaridan oziqlanib takomilda kelayotgan nahrul hayot.

Xalq tilining nasli toza bo'ladi, chetdan ko'p oqova qo'shilib, usti loyqalansa-da, tubi tiniqligicha qoladi. Oqovaning loyqasi ham vaqt o'tishi bilan cho'kadi, shu tub oqimga aralashib ketadi. Lekin ko'p quyilaversa, uni ham bo'tana qiladi, qayta tinitish uchun ne-ne yillar, balki asrlar kerak bo'ladi. Yigirmanchi asr boshlaridan beri tillarning aralashuv jarayoni bir tekis muqarrar kechayotgani uchun notoza suvni ichishga ko'nikib boryapmiz, til tamini bilishimiz susaygan. Bu esa tafakkurni to'mtoqlashtiradi.

Avom sarfu nahv qoidalarini ataylab o'rganmaydi, buning unga zarili ham yo'q, uning tili tabiiy tug'ma, u til qoidalaridan maxsus dars olmagan hoida ham bu qoidalarga to'qis amal qiladi. Yana ham to'g'rirog'i, tabiiy til jarayonini ilm uchun biz – ...shunoslar qoida-qolipga solib o'rganamiz, nazariya bilan mezon-

me'yorlarga solamiz. Ayniqsa keyingi yillarda shu mezon-me'yorlar bilan ham ishimiz bo'lmay qoldi.

Avom tilini, do'ppini yechib o'ylasak, xalqning o'zi buzmaydi, buzadigan yot istiloh-iboralarni bu tirik oqim ustiga biz – qalam ahli sochamiz, xalq esa ularni o'z talaffuziga moslab, so'zlashuv nutqiga qo'shib olib ishlataveradi. Mana, masalan, “varaqa”, “xuruship” (kampirlar “quruq cho'p” ham deydi), “karcho'pka” so'zlarining asli ruschada nima bo'lganini birdan anglash qiyin: “varaqa” “voroxoochistitel” (ko'sak chuvish uskunasi)dan, “xuruship” yo “xurushcho'p” – “Xrushchyov”... “Karcho'pka”ni bolaligimda g'o'zaning cho'pini ildizidan qirqqani uchun o'zimizning “cho'p”dan olingan deb o'ylar edim, bu so'z “korchyovka”, “korchevatel”dan ekan. Matbuot tilidan o'zimizdagi sixmola “borona” deb kirgan, xalq “barana” deb qo'llayveradi. Keng omma uchun begona so'z kirib keldimi yo o'z so'zini buzib ishlatyaptimi, uncha farqi yo'q, istiloh o'z vazifasini bajarsa kifoya, lug'aviy ma'nosi so'zning a'moli bo'laveradi. Tilimizdagi talaffuz qonuniyatlari bilan hisoblashmay qanday bo'lsa, shundayligicha kiritilgan so'z-atamalarni xalq o'z lahjalariga moslab olgan. Bu ham g'alati jarayon – juda ko'p horijiy tillarda chet so'zlar tubjoy aholi (titul millat) talaffuziga muvofiq qilib iste'molga qiritiladi, biz esa hatto boshqa turkiy tillardan ham farqli o'laroq, asl holida, hatto biron tovush harfini ham o'zgartirmay olamiz: “empiriokrititsizm”, “kompilyatsiya”, “kommunikatsiya” va h.q. Biz qalam ahli “sement” deb yozamiz, xalq esa “semon” deydi, biz “sellofan” deb yozamiz, avom esa “salafan” deb ketaveradi. Xalqning aytgani to'g'ri, chet atamani uning talaffuziga zo'rlab tiqishtirgan bizniki noto'g'ri. Yapon nasroniylari Iso alayhissalomni “Esu Kiristo” (“Esu Kiristo-sama”) deb o'z talaffuzlariga moslab yozadilar. Bu bilan o'zlari sig'inadigan Iusus Xristosga shak keltirgan bo'lmaydilar-ku. Biz ham rus tilidanmi, boshqa tillardanmi bizda o'zi bo'lmagan, muqobil atamasi yo'q istilohlarni til talaffuzimizga moslab olsak bo'lmaydimi? Xo'p, deylik, “selluloid”ni kim shunday talaffuz qila oladi? “Empiriokrititsizm” degan mo'tabar mafkura so'zini baribir “impraktizm” deb ketgan emasmidik? Yozmada bir xil yozib, og'zakida boshqacha talaffuz etib, tilimizni qiynab boraveramiz.

Chet istilohlarni shundayicha qiritish ona tilimiz ifoda boyliklarini qashshoqlantiradi. Bu boyliklar ichida tovush talaffuzi ham alohida o'rin tutadi. Men bu bilan o'tmishda qolgan atamalarga qaytish kerak demoqchi emasman,

buning iloji ham yo‘qdir endi, lekin tilimizda shunaqa so‘zlar bilan birga ularning ohori, tovushning o‘zidagi qadrdon ma’no kengliklari ham orqada qolib ketyapti, ya’ni tilimizda so‘z boyliklari iste’ moldan chiqishi barobarida ifoda imkoniyatlari ham torayib boryapti. Ko‘plar “Bayrut”ni “Beyrut”, “Bahrayn”ni “Bahreyn”, “o‘tar”ni “otar”, Balujiston”ni “Belujiston”, “Tiyonshon”ni “Tyanshan”, “Qoraqurum”ni “Korakorum”, “Baytulloh”ni “Betlexem”, “Damashq”ni “Damask” deb talaffuz qilishda uncha farq ko‘rmaydilar, xuddi “borlaring”, “kellaring” (mas., “Bu yerda turmalaring”) adabiy tilga xilof ekanini bilmaslikka olishdek, lekin ayni shu talaffuzda milliy til ohanglari, shu ohanglar uyg‘otadigan shuurosti sezimlarigacha buziladi. Mana, singarmonizm yo‘qolyapti, uning yo‘qolishi tugul, o‘zi haqida ham tasavvur ham yitib ketyapti va buning oqibati o‘z navbatida fikr ifodasini kambag‘alantiryapti.

Germaniyaning “Olmoniya”, “Livan”ning “Lubnon”, “Bolgariya”ning “Bulg‘oriston” bo‘lgani xotiramizdan o‘chyapti, endi o‘zimiz ham “Misr”ni “Yegipet”, “Habashiston”ni “Efiopiya” deyishga o‘tib ketyapmiz. “Iyerusalim” “Quddus”ni, “Aljir” “Jazoir”ni siqib chiqaryapti. “Vengriya”ning “Majoriston”, vengrlarni “madyar”, “major” bo‘lgani o‘tmishga cho‘kdi. Nimaga “Hollandiya”ni o‘rischa yozib, o‘rischa talaffuz qilib tilimizni zo‘rlaymiz? Nima uchun xorijiy istilohlarni rus tili orqali ikki aylantirib yozishimiz kerak? Muqobili o‘zimizda mavjud atamalarni ham rus tilidagisini olamiz, o‘zimizda “h” tovush harfi bo‘lgani holda rus tilidagi “g” tovush harfini qo‘llaymiz. “Gonkong”, “Geyne”, “Gomer”... Bunaqa nom, atamalarni sanasak bir qop bo‘ladi.

O‘rganib ketganimiz bois e’tibor qilmaymiz: o‘tgan asr boshlaridan ruscha egalik qo‘shimchasi “-ov”ning keng yoyilishi (turkshunoslikda asli bu turkiy “-ev” (uy, uyi)dan olingan degan qarash ham bor) ismi sharifni aytishda talaffuzni, yozuvda tovush harflarini o‘zgartirib yubordi. “Oripov” deb yozsak-da (“Orifov” deb yozmaymiz), “Oripuf” deymiz. “Fattohov”ni esa esini teskari qilib yuboramiz: “Pattaxip”. “-ov” qo‘shimchasi o‘zidan oldin keladigan istilohlarni ham buzib yozib, buzib aytishga olib keladi: “Muhammedov”, “Mahametov”, “Ahmedov”, “Porsayip”, “Ibragimov” . Mazkur qo‘shimcha bari bir talaffuzda tilimizga esh bo‘lmay. “-ip”, “-up”, “-uf” tarzida tilga to‘g‘rilab talaffuz qilinadi. Talaffuzga ham nimaga bosim o‘tkazmoqchi bo‘lamiz, tushunish qiyin.

Tillarni unifikatsiya qilish, olis kelajakda ular qo‘shilib ketib, bitta umum bo‘lib qoladi degan ishonchmi, lug‘atchilarimiz ham ancha o‘rinlarda teskari g‘ayrat ko‘rsatganlar. Ellik to‘qqizinchi yilgi o‘zbekcha–ruscha lug‘atda “Mo‘g‘o‘liston” – “Mongoliya” deyilib, o‘zbekcha asl istiloh - “Mo‘g‘uliston” eskirgan toifaga kiritilib, “mongollar”, “mongolga oid” deb zamonga moslangan bo‘lsa, sakson uchinchi yilgi ruscha-o‘zbekcha lug‘atda umuman tushirib qoldirilgan. Ya’ni “Mongoliya” – “Mongoliya”, vassalom! Sho‘ro davrida zimdan yuritilgan til siyosatining oqibatimi, “Vavilon”ni “Bobil” deb eskirgan atamalar qatorida unutishga hozirlab qo‘yilgan. “Baltika” – “Baltika”, “Baltiyskoye more” – “Baltika dengizi” deb yozilib, “Boltiqlik” istilohi qavsga olinib, buning ham kovushi to‘g‘rilangan.

Ba‘zan lug‘atchilarni ham tushunolmaysan: “мыс Dobroy Nadejды» - «Yaxshi niyat buruni», «Berega slonovoy kosti» - «Fil suyagi qirg‘oqlari” deb o‘zbekchaga o‘girilgan bo‘lsa, mas., “Драконовые горы» - “Drakon tog‘lari” deb ag‘darilganki, tilmochlikning tamoyil-tayini bo‘lganmi o‘zi degan shubhaga borasan kishi. Bu lug‘atlardan maqsad o‘zbek tilining so‘z boyliklarini ochib berishmi yo tilimizga rus tilini kiritishmi deb gumonsirab, lug‘at zahmatkashlarida milliy oriyat tuyg‘usi juda zaif ekaniga amin bo‘lasan.

Talay-talay baynalmilal istilohlar endi o‘zimizniki bo‘lib ketdi. Albatta, ko‘pining tilimizda muqobili azaldan bo‘lmagan. Eski lug‘atlardan ularga muqobil axtarish befoyda, lekin atamani o‘z tilimiz boyliklariga suyangan holda yangidan yasash mumkin, lug‘atlarimizda esa buning tersi: istilohni tayyor holicha o‘zga tildan ko‘chiradilar yoki muqobilini izlashga erinib o‘zlari mafhuman tarjima qilib qo‘ya qoladilar: “gus – erkak g‘oz”, “vitrina” – “vitrina”, “magazin vitrinasi” (“peshoyna” yoki “peshtaxta”, “do‘kon”ni go‘yo bilmaydilar).

Chet tillar oldida o‘z tilimizni, unga davlat maqomini berganimiz bilan, past ko‘rish urf bo‘lib boryapti. Misol uchun, shahrimiz ko‘chalariga bir qaraang! Uchrashuv, konferensiyalarning taklifnoma yo dasturlarini olaylik: inglizcha yo ruscha tarjimasi bor, o‘zbek tilida yozilgan qismi ham yo inglizcha, yo ruscha terminlarga to‘lib toshgan. Yig‘in tanaffusida beriladigan bir piyola choyni “kofebrek” deb ketdik, “choytatil” deyishga qishloqiligimizdan uyalamiz. Beparvomiz. Mana, «мышка», «prezentatsiya», «layk» («layk qilmoq»), «parol», «login», «onlayn», «blog», «post» «status», «mobil versiya», «domen», «internet–

provayder», «operator», «moderator», «spam», «ye-mayl», «sayt-vebsayt», «chat» va hokazo shunday oʻnlab atamalarni qanday boʻlsa, shundayicha oʻzimiz qirityapmiz, bularning anchasi oʻzbek tilida muqobiliga ega, yoʻqlarini esa bor soʻzlarimizdan yaratishimiz mumkin. Lekin ogʻzi qiyshiq boʻlsa ham boyning oʻgʻli gapirsin deb, chetkilarga tilimiz toʻridan joy beryapmiz. Koʻp horijiy atamalar adabiy tilga singib ketgan, lekin avom tilida kam qoʻllanadi. Bu ham tabiiydek tuyuladi. Masalan, “shimol”, “janub”, “sharq”, “gʻarb” atamalari asosan yozma nutqda, ilmiy maʼruza, maʼlumot beriladigan holatlarda keng isteʼmolda, ammo hali-hanuz soʻzlashuvda uncha koʻp qoʻllamaymiz. Avom hali ham “kunbotish”, “kunchiqish”ni maʼqul koʻradi, shevalarda esa ana shu toʻrt arabiy istilohning sof oʻzbekcha muqobillari bor: “chiqish”, “kunchiqish”, “botish”, “kunbotish”. “kuntugʻar”, “toʻmanbet” (gʻarb) “orqabet”, “orqovul” (shimol, baʼzi shevalarda gʻarb ham), “manglaybet”, “oʻngbet”, “kunyurar” (janub), “obqora” (janubi gʻarbiy) va hokazo (mas., qozoq tilida “shigʻis” - sharq, “batis” – gʻarb, “oʻngtustiq” – janub maʼnosini bildiradi va bu atamalar hozirda qoʻllanadi: “Oʻngtustiq Qazaqistan” – Janubiy Qozogʻiston). Mana bir-ikki misol: “Kun yurarga uch chaqirim yursang, yetasan”, “Obqoraning shamoli turdimi, havo yogʻadi”, “Kunchiqar yorishibdi” – har bir soʻzi yuqumli-suykumli, har bir tovush harfi qadrdon loʻnda-yigʻnoq jumlalar. Adabiy tilda bu xil “eskirgan” istilohlarimizni keyingilari bilan muvoziy tarzda, masalan “toʻmanbet, yaʼni gʻarbdan”, deb ishlatsak, shu tarzda til boyliklarimizni yanada tiklab borish mumkin-ku.

Yoʻq, zamon talabi deb yopishib qolganmiz, “tuppa” ming yillik taomimiz boʻlsa-da, “lapsha”da oy koʻrganmiz, har kuni oʻn martalab “lapsha”ni reklama qilaveramiz. Qiziq, oʻzimizda mavjud istilohlar oʻrniga oʻrischasini qoʻllamasak, otamiz urishadimi!

TV-radio tili alohida murakkab til, u keng ommaga aytiladi va omma bilan doimiy muloqotdaligi bois bu til adabiy til bilan soʻzlashuv tili oʻrtaligʻidagi martabada boʻladi, undagi nutq ishlov ishlab berilib, tajribadan oʻtib, turish, yarim turish, xatboshilardan tortib oʻqishda urgʻularning joy-joyiga qoʻyilishigacha qoidalashgan til. U qanchalik ravon, jonli tilga qanchalar yaqin boʻlsa, unga ishlov berilganini tinglovchi shuncha sezmaydi. Lekin eshituvchi sezmas ekan deb sirdigʻasiga, nafas rostlanmay, surib ketaverish insofdan emas. Atay shevada “vottilash”, “magʻan-sagʻan”, “buytib-shuytib”, “galdi-gatti” qilish (TV-radioda

shevada gapirgan odam ataylab qiladi, chunki u maktabda adabiy tilda o‘qigan, baloday biladi ham), o‘zidan boshqa shevalarga bepisandlik, umuman elga behurmatlik, kaltabinlikdan boshqa narsa emas. Shuning uchun ham ekranda gapirgan odamning hatto talaffuzidagi sheva ham eshitganning g‘ashiga tegadi. Hali bu mavzuga qaytamiz ham.

Bugungi kunda chet so‘zlar yozma adabiyot, matbuot, ommaviy nashrlar, radio-TV, ko‘chaning yozuv va shiorlari, reklama matnlari orqali kirib kelayotir. Bir-bir yarim asr burun avom tili har biri nisbatan ihotalangan shevalardan iborat bo‘lib, adabiy til asosan bitma kitoblarda muhrlangan, istifodasi maktab va madrasalar ta‘siriga bog‘liq kechgan, boshqacha aytsak, axborot-kommunikatsiya ko‘lamining torligi adabiy til taraqqiysiga ham uncha erk bermagan. Toshbosma matbaaning paydo bo‘lishi gazetachilik rivojiga olib keldi va natijada adabiy tilning istifoda ko‘lami ham kengaya boshladi. Gazeta-jurnal, kitoblarning ko‘plab chop etilishi, keyinroq radio, undan so‘ng televideniyaning paydo bo‘lishi adabiy tilni umumtasarruf miqyosga olib chiqdi. Jumladan matbuot va televideniye keng xalq ommasini qamrab oldi, OAV adabiy tilda bo‘lishi lozim va lobidligi bois, bugungi kunda o‘zi shu til o‘rgatuvchi martabasiga qo‘tarildi. Burunda shoirlar oldingi bitmalardan, baxshilar xalq orasida yurib adabiy tilni (ming afsuski, endiga kelib sheva boyliklari kabi folklor tilini ham adabiy tildan sal mundayroq ko‘ramiz, uning xazinasiga mahliyo bo‘lganimiz holda, adabiy tildan juda kam foydalanamiz) o‘rgangan bo‘lsa (bu gap ham havodan nafas olgan deganga o‘xshaydi), bugun esa o‘rgatuvchilikning asosiy yuki OAV, xususan radio va TVning zimmasiga tushyapti.

Qiziq bir o‘rama halqa hosil bo‘ladi. Mana, lug‘at izohida yozadilar: “Kam qo‘llanadigan, eskirgan, dialektal va folklorga oid so‘zlarning hoziri o‘zbek adabiy tilida mavjudligini tasdiqlash, ularning individual qo‘llanishini ko‘rsatish uchun, zarur o‘rinlarda, o‘zbek badiiy adabiyoti folklor va matbuotdan sitatalar keltirilgan eskirgan va dialektal so‘zlardan o‘zbek sovet yozuvchilari asarlarida ko‘p uchraydiganlari ko‘chma ma’noda ishlatiladiganlari yoki maqol va matallar tarkibida uchraydiganlarigina olingan so‘zlar yoniga tegishli pometalar qo‘yilgan.” Bu izohning ikki jihatiga e‘tibor qiling: “o‘zbek badiiy adabiyoti, folklor va matbuotdan sitatalar keltirilgan eskirgan va dialektal so‘zlardan o‘zbek sovet yozuvchilari asarlarida ko‘p uchraydiganlar yo maqol va matallar tarkibida uchraydiganlarigina olingan so‘zlar yoniga pometa qo‘yilgan” – ya’ni bularga

ahamiyatsiz degan mamnu tamg‘asi bosilgan: ikkinchi jihati lug‘atda so‘z shunaqa toifalangan bo‘lsa, demak ko‘pi “eskirgan”, “kitobiy”, “oblastnoy” sifatida safdan chiqarilib, til boyliklari toraytirilgan, oqibatda “badiiy asar - lug‘at – badiiy asar” tor o‘ramasi yuzaga kelgan va bu o‘rama hozirgacha ochilay demaydi. Shevalarimizdagi so‘z boyligi har biri o‘z elatining ko‘chasida bee’tibor qolgan. Holbuki adabiy til sheva, dialekt, lahjalardagi so‘z zahiralari hisobiga tinmay boyib, rivoj topib borishi kerak. Ishlatilmay yotgan zahiraning ko‘lami nihoyatda keng. Hatto adabiy tilga asos qilib olingan qarluq-chigil-uyg‘ur shevalarining (fonetika Toshkent, grammatikasi Farg‘ona shevalaridan) o‘zidagi rang-baranglik ham hali to‘lig‘icha o‘rganilmagan. Siz T.Nafasovning “Qashqadaryo xalq so‘zlari”, B.To‘ychiboyev va Q.Qashqirining “Zominning til qomusi” degan fidoyi tadqiqotlarini yana bir o‘qing, ne-ne so‘z boyliklarimiz qayerlarda ko‘milib yotganiga o‘zingiz guvoh bo‘lasiz. Biz esa shevada vottilab yo galdi-gattilab, mahallamizni dunyoga olib chiqqandek g‘o‘dayamiz. Asli bu millatning birbutunligiga qarshi ishlash, ha, ha, zararkunandalik ekaniga aqlimiz yetmaydi yo kibrimiz dilimiz ko‘zini ko‘r qilgan.

Yana misollar olamiga qaytamiz.

Ayni paytda chet so‘z, iboralarning o‘rinli-o‘rinsiz tarzda iste‘molga kirishi, gap tarkibida sun‘iy ifodalarning paydo bo‘lishi chet tillar ta’siri va kommunikatsiya oqibati o‘laroq tilimizning buzilish holatlarining avom tiligacha kirib borishi ham shular tufayli. Mulohaza uchun reklamadan bir misol: “Uzoq va qulay hayot qechiring!”. Bunaqa masxarasi o‘ziga esh jummalarni har kuni o‘nlarcha marta ko‘ramiz, eshitamiz, fikri balog‘atga yetmagan bola-yoshlarning qulog‘iga quyamiz (biz so‘z ustalari). “Istagan joyimdan o‘p!” – e betingdan buzulgur, deb yuborging keladi! “Buni bilishni xohlardim deb o‘ylardim”, “Aksariyat bug‘uchalar shu yerda dunyoga kelishadi”, “Bu hududda juda irodali jonzotlar yashashadi”, “Ular (ya’ni pashsha) bu yerlarda ko‘ldan ko‘lga uchib hayot kechiradilar”, “Oddiy ko‘z bilan ham bu betakror manzaraning shohidi bo‘lish mumkin”, “Bu zaminning musaffo osmonida Andi kondorlari parvoz qilishadi”, “Gobi bo‘rilari quvlashadi” (tuyani), “...bo‘rilar foydalanishadi”, “...bo‘rilar bo‘g‘izlashadi”, “Devorlarga ishlov berilgan somon qatlami yemirilib tushgan”, “Qal’a devorlari loydan tiklangan”... - bu qanaqa til o‘zi? Shu jummalarni yozgan, o‘qib berayotganlarning o‘zi biron yerda o‘qiganmi ekan?! G‘azabingiz keladi,

xunobingiz oshadi, lekin bu jumlar chetning masallig‘idan o‘zimiz pishirgan osh - o‘zimiz ichyapmiz.

G‘aluz jumla, xato so‘zni qancha ko‘p gapirsirsangiz, shuncha ko‘nikasiz, g‘aluz-xato ekani bilinmay qoladi. Quloq o‘rgangani, ko‘nikkanimiz bois uchun shunisi tabiiydek tuyuladi, sirtidan o‘zbekcha, lekin bir razm soling: birinchisi “Ya xotel бы etogo znat” iborasining juda beo‘xshov o‘girilishi; undan keyingi jumlada hayvon ko‘plikda aytilyapti, “bug‘uchalar” deb “olenyonki”dan shundoq ag‘darib qo‘ya qolingani; shuni “Aksariyat bug‘u shu yerda bolalaydi”, desa bo‘lmaydimi? Undan keyingisida yana shu: hayvon ko‘plik fe‘lida huddi sizlangandek; “iroda” insonga, hayvonga esa “chidamli” (yana bir ikkita chiroyli so‘z bor, esimga kelmayapti) nisbatan qo‘llanadi. “Bu yerlardagi jonzotlaring joni qattiq” desa odamga sal tushunarli bo‘larmidi? Bo‘ri(lar) qanday qilib foydalanishadi? Bir narsadan foydalanish uchun aql bo‘lishi kerak-ku. Bo‘rilar quvlashib o‘ynashmayapti, balki o‘ljaning iziga tushgan, uni quvlayapti. Keyin, bo‘ri tuyani odamga o‘xshab pichoq bilan bo‘g‘izlamaydi, bo‘g‘izlab ketadi. To‘g‘rirog‘i, bo‘ri tuyaga “teginadi” yoki uni “oladi”.

Navbatdagi jumlaning o‘zimiz gapirgandek osongina qilib “Devorning somon suvog‘i ko‘chib tushgan”, oxirgisini “Qal‘a devori paxsadan (tiklangan)”, desak bo‘lmas ekanmi? Rus tilida “paxsa”ning muqobili yo‘q, ularda loy ham, uning quritilgani ham, tuproq ham “glina” deyiladi (“glinobytaya stena» - “paxsa devor»). “Oddiy ko‘z” degani nimasi, Anddan boshqa “Andi” tog‘i ham bormi? Kondorlar parvoz qiladi, “qilishadi” emas! Pashshalar “hayot kechiradilar”mi? Bunday o‘ylab qarasang, ko‘pincha muqobili bo‘laturib, ba‘zi hollarda esa ilojsizlikdan kiritilgan yot so‘zlarning uncha ham zarari yo‘qdek tuyuladi, loydan tiklangan, desa nima bo‘pti, odamlar tasvirda paxsa ekanini ko‘rib turibdi-ku, “matras” “to‘shak”ka nisbatan tushunarli, ham aniq, hamma nima desa, shuni qilaylik-da. Endi “barana” (“borona”)dan “sixmola”ga qaytib qancha baraka topardik! Silovsin bilan qoraquloqni ko‘rmagan bo‘lsak, farqini bilmasak, ikkovi ham yo‘q bo‘lib ketayotgan bo‘lsa, ularni “yovvoyi mushuk” deganimiz o‘ng‘ayroq emasmi? (Bir filmda ruscha “karakal” o‘zbekchaga “karakol” deb o‘girilgan, oppa-son, qulay - ikki tilda ham birdek tushunarli! “Qoraquloq” deb qishloqcha cho‘zib yuradimi!) Oldingi lug‘atlardan birida “dvoynik” - “hamaft”, “hambet” deb tarjima qilingan ekan (“betdosh”, “aftdosh” demabdi ham yaxshi). O‘shanaqa tarjimalardan ruscha atamaning o‘zi yaxshi emasmi? Men shu ba‘zi

lugʻatlarni varaqlab talay atamalar tarjimasini lugʻatchilarning oʻz ijodi emasmikan degan shubhaga boraman. Masalan, “Serna – togʻ kiyik, qora echki”. “Serna”ning tubi turkiy emasmikin, yoʻq esa qora tilda “togʻ kiyik”, demaydilar, keyin bu oʻzi kiyikmi, echkimi, uning aniq bir atamasi boʻlishi kerak. Balki turdoshligi bordir, lekin bizda kiyik bilan echki farqlanadi.

Oʻz tilimiz, sheva soʻz boyliklariga eʼtiborsizligimiz tufayli, masalan, ohu, kiyik, maral, bugʻuni farqlamaymiz. Saygʻoqni bir “saygak”, “kiyik” deymiz, bir “ohu”, uning nomini ham ruschadan oʻzbekchalashtirganmiz (ruslarning oʻzi bizdan olgan shekilli), yoʻq esa asl istilohlari bor: “boʻka”, “oqquyruq” (Amerika qitʼasidagi oqquyruq bilan aralashtirmaslik kerak). “Kiyik bolasi” deymiz, “quralay” esa folklorda qolib ketyapti yo koʻchma maʼnoda ishlatiladi (“qoʻzlari quralay”). Bir filmda gnu antilopasi “gnu ohusi” deb tarjima qilindi. Gnu – gavdasi qoramoldek, shoxi ham buqa shoxi mengzash yirik hayvon, biz esa ohuni nozik kiyik sifatida tasavvur qilamiz. “Chiyaboʻri yo shoqol bolasi” deyiladi, xalq esa “voyvoyak” deydi. Asl muqobilini bilmaygandan keyin har maqomga yoʻrgʻalashning nima keragi bor: “hayvonlarning koʻpayish mavsumi” emish! Bu fasl lugʻaviy maʼnosida ham koʻpayish mavsumi emas, kuyga kelish, kuyikish, iliqish, qochish pallasi. Koʻpayishning jonivorlarning turiga qarab, “qoʻzilash”, “qulunlash”, “kuchuklash”, “bolalash” kabi oʻrnida qoʻllanadigan istilohlari mavjud. Matbuot tilidagi beoʻxshov “qoʻzilash mavsumi”ni xalq soddagina qilib “toʻl” deydi-qoʻyadi. “Yomgʻirlar mavsumi” emas, “yomgʻir mavsumi”, aniqrogʻi “yogʻin mavsumi”, yana ham aniqrogʻi “yogʻingarchilik”, avom tilida bundan ham toʻgʻriroq – “hoʻlgarchilik”.

Muammoning yana bir jihati bor. Men hujjatli filmlarni juda yoqtiraman, koʻp koʻraman. Turli mamlakatlardagi odamlarning turish-turmushi, har xil yurtlarning tabiati, hayvonoti, nabototi haqida. Bu filmlar chet ellarda juda katta mehnat, undan kam boʻlmagan mablagʻ bilan yaratiladi. Bir pingvinni suratga tushirish uchun qahraton Antarktidada oylab qolib ketadilar va bu parranda haqidagi jild-jild tadqiqotlar ustida koʻz nurini toʻkadilar. Nahangni tasvirga tushirish va uni gapirib berish uchun u bilan, bilmayman, hayotni garovga qoʻyib, qancha vaqt birga suzadilar. Nahang borasidagi jami adabiyotni titkilab chiqadilar, boshqalar yaratgan filmlarni koʻrib oladilar. E xullas, bu filmlar ming mashaqqat bilan yuzaga keladi va shu mashaqqatlar samarasi oʻlaroq tasvirlari koʻrimli, mazmuni maʼlumotlarga boy, tarjimasiga qarab taxmin qilsangiz, yaratilgan tili ham goʻzal.

Xorijiy telekanalarda yaratilgan hujjatli filmlarni rus tiliga qilingan tarjimalarda ko‘raman, ularda har bir giyoh, har bir ashyo, har bir jonzotning o‘ziga xosliklarini aytibgina qolmay, nomigacha, mahalliy aholining o‘zi nima deydi, rus tilidagi muqobili qanday, barchasi aniq-taniq. Lekin biz bunaqa asarlarni ustidan suvab olashovur ag‘daraveramiz. Yaydoq dalami, demak, cho‘l, qumlimi, demak, qum sahrosi, cho‘lmi, unda cho‘l – vassalom! Atamalarning har xilligi, ifoda rang-barangligi, so‘z boyliklari nima kerak, odamlar tushunsa bo‘ldi-da! Toqqa xos so‘zlarni bilib, nima, tog‘chi bo‘larmidik! “Mahobatli”, “osmono‘par” deb qo‘shib qo‘ysak yetmaydimi!. Bittasi “jonsiz cho‘qqilar” deb o‘qiyapti, hech bo‘lmasa, o‘rischasini yaxshilab uqqan bo‘lsa ekan: “bezjiznennye skaly»ni shunday o‘girib, cho‘qqini o‘ldiga chiqaribdi. “Bo‘zqoya”, “bo‘sqiyo”ni bilmasangiz, jilla qursa “yalang‘och qoyalar” deb o‘giring, baraka topgur!

Xalqning o‘zi qo‘ygan atamaları aniq-taniq, sodda va ixcham bo‘ladi. Masalan, tog‘ning badand cho‘qqisini “osmono‘par qoyalar”, “ko‘kka bo‘y cho‘zgan” deb bo‘yab-bejab cho‘zmaydi, “nurama” deb qo‘ya qoladi (“nurama” qorli yo yaydoq cho‘qqining nur qaytarishidan olingan bo‘lsa ham bordir, yana bilmadim). Cho‘qqi uchi – nuramaning shakl-shamoyili, o‘rniga qarab “qiroq”, “xorra, “huchchi”, “sala”... kabi bir nechta muqobili borki, har biri muayyan o‘shanaqa cho‘qqi yo qoya uchini bildiradi. Xalq “tog‘ning qiyalik joyi” demaydi, balki “enish” deydi, enishning mayda tosh qoplanganini lo‘nda qilib “chag‘il” deydi (“Chag‘il qizima yer bo‘ladi” – bu lo‘nda ibora ma‘nosini berish uchun qancha ortiqcha so‘z ishlatamiz biz). “Tog‘ bag‘ridagi ingichka yo‘l” bitta atama bilan “chiziq” deb aytiladi.

Nima bu: nuqul “tog‘”, “qoya” (yo cho‘qqi), “dara”, toqqa tegishli boshqa atamalar yo‘qmi, deb erinmay lug‘at varaqladim, qarang, qancha atama-nomlarga duch keldim: “qiroq”, (qoyaning usti, “Oy tug‘adi qiroqdan”), “huchchi” (qoya uchi), “shiram” (uzunasiga cho‘zilgan qoya), “sala” (cho‘qqining uch qismi), “qasnoq” (daralarining aylana nuqtasi), “qat” (qir, cho‘qqining baland uchi, unda faqat arxar yuradi), “qatal” (yolg‘izoyoq yo‘li bo‘lgan enish), “chuqun” (tog‘li hududlardagi tabiiy chuqurlik, yashin urib chuqur bo‘lgan joy), “chag‘il” (mayda toshli qiya yonbag‘ir), “chungul” (dara ichida yurish qiyin, chuqur-chop joy), “qasag‘a” (quyidan yuqoriga ketgan qat-qat yassi tosh uyumi), “qirrak”, “qisilchang”, “qoyazov”, “chag‘al”, “chag‘at”, “chiyir”, “ching”, “chaltov”, “tarang”... yetar, a?

Cho‘qqi tog‘ning eng baland nuqtasi, u bir tog‘da bitta yo bir nechtagina bo‘ladi, qoya esa o‘nlab, minglab ham bo‘lishi mumkin. Rus tilida “vershina” bilan “skala”ni farqlaydilar, tarjimonlarimiz esa aralash qo‘llyayveradilar. Xuddi shunday “skalыstiye gory”ni “qoyali tog‘lar” deb o‘giraveradilar, holbuki tasvirda ko‘rinib turgani faqat bitta tog‘, uni “qoyali” deb aytish ortiqcha. Yassi tog‘ning esa o‘zbek tilida o‘z atamasi bor. Albatta, bu atamalarni, tabiiyki, bilmaymiz, chunki tog‘da yashamaymiz, har kuni toqqa chiqmaymiz. Shu boisdan tog‘da o‘sadigan “umrzoqgul”, “erbahosi”, “echkimchak”, “shatraj”, “qorayaproq”, “qarg‘atirnoq”, “qizilpoycha”. “ayiqquloq”, “shappa”, “beldirg‘on”, “birsepar”, “birchanoq”, “abrik”, “dalachoy”, “karavush”, “bo‘ymodaron”, “darmana”, “dastorbosh”, “guldavg‘ach”, “do‘g‘bo‘yin”, “qilqanot”, “chiranak”. “toshbaqatol”, “janjabil” (“zanjabil”), “igir” kabi o‘nlab giyohlarning (aksariyati dorivor) nomidan ham bexabarmiz (men ham bu atamalarni T.Nafasov, B.To‘ychiboyev, Q.Qashqirining kitoblaridan tergilab oldim va hech bo‘lmasa bir yodga olib qo‘yaylik deb, zavq bilan sanayapman)... Albatta tog‘chi odam yo mutaxassis bo‘lmasa, bunaqa atamalarni eslab yurish mushkul, shart ham emas. Lekin shu giyohu o‘tu o‘lanlar o‘z tog‘larimizda o‘sib yotibdi. Tog‘ va uning nabotot dunyosi haqida film bo‘ladimi, maqolami, kitobmi tarjima qiladigan tilmoch bularni bilishi, jilla qursa, lug‘atlardan izlashi kerak. Lug‘at tuzuvchilar ham muqobillarni o‘zidan urchitmay, eski lug‘atlarga suyanishi, sheva boyliklaridan izlanishlari lozim. Mana, masalan, endi keraksizdek bir misolni olaylik. Shevada uyurbov – uyurbog‘ istilohi bor, buning izohini qarang: “qora uy tuvurliq‘ining boshiga tikilgan tasma”. Endi bunda “tuvurliq”ni bilmaymiz. Uning ham izohi bor ekan: “Qora uy erganagi bilan tuvur bog‘langan qismidan keraganing chiy yoyiladigan qismigacha yopiladigan to‘rt bo‘lak kigiz”. Endi “erganak” – “qora uy, mol qo‘ra, qo‘tonlarning eshigi”. Xo‘p, “chiy”, “qora uy”, “mol qo‘ra” tusmol bilamiz. Qarang-da, qanaqa istilohlarni bilmaymiz, ishlatmaymiz: “qoshg‘ari”, “qushoyoq”, “g‘ildiravik”, “qo‘shqanot”, “qaychiquloq”, “to‘yako‘z”, “to‘dagul”, “barchin”, “qiyagul”, “turum”, “tupak”, “tuynukyopqich”, “tuynukbov”, “qo‘ykvshurma”, “tuvuq”, “to‘nkarma”, “uvuq”, “uvuqbov”, “chang‘aroq”, “uzuk”, “uzukbov”, “uyqoziq”, “uyarqon”, “uybog‘ish”... O‘tov, qora uyga, uning uzvlariga tegishli mazkur atamalarni yana o‘sha T.Nafasov, B.To‘ychiboyev, Q.Qashqirining tadqiqotlaridan oldim. Shu boyliklar endi go‘yo keraksiz, og‘zakida qolib ketgan eskilik!

Bunaqa atama, istilohlar adabiy tilga ham kirmagan, ularni yozishga biz qalam ahli injilamiz, ko‘pimiz bilmaymiz ham, bilish shart emas deb qaraymiz, lekin tubi biz bilan bir turkiy tilli qo‘shnilarimiz qora uyning har ashyosigacha nomma-nom biladilar, uni ehtirom qiladilar, davlat ramzlariga kiritganlar. Biz nimaga o‘tmishimizni esdan chiqarishimiz kerak? Til o‘tmishidan yuz burish – o‘zligidan yuz burish, so‘z boyliklarini surrogat atamalarga almashtirish – bu tafakkurni surrogat qolipga solib, adabiy tilni muayyan tushovga solib qo‘yishdir. Ming yil ilgarigi “Devonu lug‘atit turk”dan bu yog‘iga taraqqiyda bo‘lgan tilimizni bugun nima ahvolga solayotganimiz o‘zini o‘zbek deb o‘ylaydigan, o‘zini fiqr qilguvchi hisoblaydigan har bir fuqaroning o‘z taniga aqllashadigan muammosi va shunga beparvoligi uchun vijdoni, oriyati oldida, qolaversa, davlat tili haqidagi Qonun oldida javob beradigan masaladir. Zero davlat qanaqadir bir umumiy makon emas, u – o‘zimiz, har birimiz.

Hali bu gaplarimiz hammasi emas.

2013 y.

[Buzuq til havosi \(birinchi maqola\)](#)

[Tilda machchoyi sayil \(ikkinchi maqola\)](#)